

Mirzoyeva I.E.

BuxDU, Ekologiya va geografiya kafedrası

g.f.f.d (PhD), katta o'qituvchisi

**TO'DAKO'L – QUYIMOZOR SUV OMBORLARINING ATROF
LANDSHAFTLARINING EKOLOGIK HOLATINI O'ZGARISH
DARAJASINI BAHOLASH**

Annotatsiya: Ushbu maqolada, To'dako'l-Quyimozor suv omborlarining atrof landshaftlarining ekologik holati past, o'rtacha, yuqori darajada o'zgarishi baholangan hamda batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: iqlim, rekreatsion o'zgarish, morfologik, landshaft, cho'l, bioxilma-xillik, tuproq, relyef, degradatsiya, agroiirrigatsion, urochisha.

Mirzoyeva I.E.

BukhsU, Ecology and Geography

Doctor of Philosophy (PhD) in Geography, Senior Lecturer

**ASSESSMENT OF THE DEGREE OF CHANGE IN THE
ENVIRONMENTAL SITUATION OF THE LANDSCAPES OF THE
TUDAKUL-KUYIMAZAR RESERVOIRS**

Abstract: This article assesses and provides detailed information on changes in the ecological state of the surrounding landscapes of the Tudakul-Kuyimazar reservoirs at low, medium, and high levels.

Keywords: climate, recreational change, morphological, landscape, desert, biodiversity, soil, relief, degradation, agro-irrigation, urochisha.

Tabiatda barqaror rivojlanishga va murakkab morfologik tuzilishga ega bo'lgan cho'l landshaft majmualarini tadqiq etish, ularning makondagi qonuniy tabaqalanishini tahlil qilish, obyektiv mavjud bo'lgan morfologik birliklarni

ajratish, chegaralash va tasniflash hozirgi zamon landshaftshunoslik fanida muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa birinchi navbatda tabiatdan oqilona foydalanishni, atrof-muhitni muhofaza qilishni tashkil etishda va vujudga kelgan turli xil geoekologik vaziyatlarni optimallashtirishga oid chora-tadbirlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Buxoro viloyati landshaftlarini kompleks o'rganish va tabaqalashtirishda tabiiy geografiyaga yaqin bo'lgan tarmoq fanlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar kompleks geografik izlanishlar uchun poydevor vazifasini o'tab kelgan. Bu borada ayniqsa N.A.Buskov va Y.M.Nosirov (1960), I.Sh.Granitov (1964), Y.B.Rahmatov tomonidan Qorako'l deltasi landshaftlari (1975–1982), U.Nurov (1977–1988) Zarafshon deltasi landshaftlari dinamikasi va tabiiy resurslarini o'rgangan.[1]

I.Q.Nazarov, X.R.Toshovlar tomonidan (2008-y.) cho'l landshaftlarini tasniflashning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan va yangicha tipologik taksonomik pog'ona va birliklar tizimi tavsiya qilingan, mazkur tavsifga ko'ra quyidagicha taksonomik birliklar taklif qilingan:

Landshaftlar zonasi (cho'l tabiat zonasi); landshaftlar sinfi (tog' va tekislik); landshaftlarning kichik sinfi (past tog' yoki pastqam tekisliklar); landshaftlar tipi (qumli, gilli, gipsli, sho'rxok); landshaftlarning kichik tipi (ko'chma qumlar); landshaftlar turi (barxanli qumlar) [2; 71-b.].

Landshaftlarni u yoki bu maqsad uchun baholashning asosiy mazmuni kishilik jamiyatining talablaridan kelib chiqqan holda landshaftlarning yaroqliligini, qulay yoki noqulayligini aniqlab berishdan iboratdir. Tabiiy majmualarni baholashning uch jihati aniq bo'lishi kerak.

Birinchi, baholashning obyekti aniq bo'lishi kerak. Bunda tabiiy komponentlardan biri, masalan, iqlim, relyef tuproq yoki o'simlik baholash obyekti bo'lishi mumkin. Ammo bunday baholash bir tomonlama bo'lib, joy tabiiy sharoitning har tomonlama bahosini berish mumkin bo'lmay qoladi.

Shuning uchun baholashning obykti sifatida geotizim olingani ma'quldir. Mavjud baholash tajribalari natijasida ham landshaftlarni obyekt sifatida qarash maqsadga muvofiq bo'lishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, baholashning subyekti ham bo'lishi kerak. Ya'ni tabiiy majmualar yoki landshaftlarni baholayotganda nima uchun, kim uchun baholanayotganligi ham aniq bo'lishi kerak.

Uchinchidan, obyekt va subyektdan tashqari yana uni baholanayotgan vaqtdagi iqtisodiy geografik, sotsial, tabiiy geografik, ilmiy-texnik sharoit kabilar hisobga olinishi kerak. Sharoit makon va zamonda o'zgaruvchan bo'lganligi uchun baholashning natijalarini ham mos holda o'zgartirib turishga to'g'ri keladi.

Baholanishi lozim bo'lgan tabiiy sharoit yoki tabiiy muhit faqat turli xil tabiiy element qismlarning tasodifiy yig'indisi bo'lmay, balki yaxlit qismlari o'zaro ta'sir va aloqada bo'lgan tizim hamdir. Ana shu yaxlitlik yoki bir butunlik landshaftlarda aks etgan. Tabiiy sharoitni qishloq xo'jaligi uchun baholash dastavval landshaftlarning qishloq xo'jaligida foydalanilishini cheklashi mumkin bo'lgan xususiyatlarni aniqlab olishdan boshlanishi kerak. Landshaftlarning bunday xususiyatlari ularning relyef, tuproqlar, yer osti suvlarining holati kabilar bilan bog'liqdir. Landshaftlarni baholash obikor dehqonchilik uchun ham, bahorikor dehqonchilik uchun ham, qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan eng muhim hisoblangan 3 ta komponent: iqlim, tuproq, relyef bo'yicha bajarilgani maqsadga muvofiq. Yaylov chorvachiligi uchun asosan o'simlik qoplamiga qarab baholash ma'quldir. Qishloq xo'jalik ekinlarining o'sishi va rivojlanishiga iqlim tuproq relyefning turlicha ta'sir ko'rsatishi mumkinligini hisobga olsak, ularni baholash usullari ham turlicha bo'ladi [3; 44-46-b.].

To‘dako‘l – Quyimozor suv omborlarining atrof landshaftlarining ekologik holat o‘zgarish darajasini baholash

Ekologik holat o‘zgarish darajasi	Landshaft elementlaridagi jarayonlar	O‘zgarish bahosi, ballda
Past darajada	cho‘llanish, tuproq yuvilishi, suv eroziyasi, o‘simliklarning siyraklashuvi	3
O‘rtacha darajada	degradatsiya, yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, ikkilamchi sho‘rlanish.	4
Yuqori darajada	To‘qayzor joy tipini shakllanishi, bioxilma-xillikni ortishi, botqoqlanish, sho‘rxok botqoqlarni yuzaga kelishi, tuzli qumoq cho‘l tuproqlarni shakllanishi	5

To‘dako‘l – Quyimozor suv omborlari va uning atrofi landshaftlarining ekologik holatining ta’sir darajasini aniqlashda yanada kichik tabiiy geografik taksonomik birligidan foydalanildi va ularni urochisha tipi doirasida, suv ombor atrofida to‘rtta (1.Janubiy-g‘arbiy To‘dako‘l, 2.Janubiy-sharqiy To‘dako‘l, 3.Quyimozor suv ombori atrofi, 4.O‘rtacho‘l massivi atrofi) tayanch tadqiqot uchastkalari ajratib o‘rganildi.

Past darajada (3 ball) cho‘llanish, tuproq yuvilishi, suv eroziyasi, o‘simliklarning siyraklashuvi past darajadagi ekologik holat darajasi o‘zgargan landshaftlar asosan, suv omborlar tizimiga tutash bo‘lgan quydagi landshaftlarda namoyon bo‘ladi. Bu yerda eng keng tarqalgan tuproq tipi sho‘rxok va sho‘rtob tuproqlaridir. Ularning qatlamlar bo‘yicha tabaqalanishi juda kuchsiz ifodalangan. Tuproqlarning qalinligi hudud bo‘ylab bir tekisda taqsimlanmagan chunki ularning qalin yoki yupqa bo‘lishi bevosita joyning mikrorelyef shakllari bilan chambarchas bog‘liq. O‘simliklaridan shuvoq, partak, singren, isiriq, sassiq kovrak, qora saksovul qandim, suv o‘ti, qamish, hamda efemerlar yetakchilik qiladi. Tipik bo‘z tuproqlarda efemer o‘simliklari keng tarqalgan landshaftlar, to‘q tusli bo‘z tuproqlardagi shuvoq (*Artemisa tenusecta*) formatsiyali landshaftlar, sur-qo‘ng‘ir tuproqlardagi shuvoq (*Artemisa tenusecta*) formatsiyali landshaftlar, bunda Janubi-g‘arbiy To‘dako‘l hududi

kiradi.

O‘rtacha darajada (4 ball) degradatsiya, yer osti suvlari sathining ko‘tarilishi, ikkilamchi sho‘rlanish. O‘rtacha darajada ekologik holat darajasi o‘zgargan landshaftlar esa quyidagi landshaftlarni o‘z ichiga oladi. Bular: och tusli bo‘z tuproqlarda efemer o‘simliklari keng tarqalgan landshaftlar, bo‘z-o‘tloq tuproqlardagi agroirrigatsion (sug‘oriladigan yerlar) landshaftlar, och tusli bo‘z tuproqlardagi qo‘ng‘irbosh (*Poa bulbosa* L.) iloq (*Carex pachystylis*) formatsiyali efemer o‘simliklari keng tarqalgan landshaftlar, och tusli bo‘z tuproqlardagi shuvoq (*Artemisia deffusa*), sarsazan (*Peganum hamala*), qo‘ziquloq (*Phlomis thapsoidas*) formatsiyali landshaftlar. Ushbu landshaftlarda degradatsiya, yer osti suvlari sathini ko‘tarilishi, ikkilamchi sho‘rlanish jarayonlari kuzatiladi. Bu hududlarga O‘rtacho‘l massivining atrofi kiradi.

Yuqori darajada (5 ball) to‘qayzor joy tipini shakllanishi, bioxilma-xillikni ortishi, botqoqlanish, sho‘rxok botqoqlarni yuzaga kelishi, tuzli qumoq cho‘l tuproqlarni shakllanishi yuqori darajada o‘zgargan odatda suv ombor sohil bo‘yi mustahkamlanmagan va yarim mustahkamlangan qumli cho‘l tuproqlaridagi qamish (*Phragmites comminus*), jing‘il (*Tamaricaceae hispida willd*) formatsiyali to‘qayzor landshaftlarida, yarim mustahkamlangan tizmalı qumli cho‘l tuproqlaridagi iloq (*Cerex physodes*), qo‘ng‘irbosh (*Pao bulbosa* L.) efemer o‘simliklari keng tarqalgan landshaftlarda hamda gipsli tuproqlardagi botqoq sho‘rxoklarda sho‘rajriq (*Aeluropus litoralis*) o‘simliklari keng tarqalgan landshaftlarda kuzatiladi. Ushbu landshaftlarda to‘qayzor joy tipini shakllanishi, bioxilma-xillikni ortishi, botqoqlanish, sho‘rxok botqoqlarni yuzaga kelishi, tuzli qumoq cho‘l tuproqlarni shakllanishi kabi jarayonlar yuz bermoqda. Janubi-sharqiy To‘dako‘l, Quyimozor suv ombori atrofi hududini o‘z ichiga oladi. Natijada, kichik taksonomik birliklarida ekologik holatning o‘zgarish jarayoni yuqori darajada borayotganligi aniqlandi. Urochisha tiplarini tasniflashda relyef, tuproq, o‘simlik asos qilib olindi. (1-jadval).[4]

Xulosa qilib aytganda, To‘dako‘l va Quyimozor suv havzalari atrofi landshaftlarini vujudga kelishi va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, tuproq va yer osti suvlari statistik ko‘rsatkichlari asosida ekologik baholash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abbasov S.B., Mirzoyeva I.E. Quyimozor – To‘dako‘l suv omborlari atrofi landshaftlarini oqilona tashkil qilish xususida. // “Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2024. –B.11-14.

2. Тошов Х.Р. Чўл ландшафтлари ва уларнинг агроимкониятларидан самарали фойдаланиш (Бухоро вилояти мисолида). Дисс. – В.: 2007.

3. Zokirov Sh.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: “Dizayn Press”. 2013. –170 b.

4. Mirzoyeva I.E. Quyimozor–To‘dako‘l suv omborlari yondosh hududlari landshaftlari va ularning ekologik holati // Iqlim o‘zgarishi sharoitida cho‘l-voha ekosistemi: muammolar va yechimlar. Xalqaro simpozium materiallari. 2023. –B.63-65.